



**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI TARIX FAKULTETI TARIX
O'QITISH METODIKASI TA'LIM
YO'NALISHI**

KURS ISHI

**Mavzu: Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va
ilmiy faoliyati.**

Bajardi:

3-"A" guruh talabasi Nazarov E.

Qabul qildi:

Rahmonov H.

Navoiy-2015.

Mundarija

Kirish	3
1. Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodi.....	8
2. Mahmudxo'ja Behbudi – marifatparvar olim.....	15
3. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodiy faoliyatida o'z davrining ijtimoiy –siyosiy jarayonlarining aks etishi.....	21
4. Xulosa	23
5. Ilova (Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy maqolalaridan namunalar).....	25
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.....	33

Kirish

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'yishi otabobolarimizning ozodlik va erk uchun uzoq kurashi tarixini qayta idrok etishda milliy ozodlik harakatlari va jadidlarning milliy uyg'onish mafkurasining shakllanish jarayoni davlat mustaqilligiga erishishni taminlagan omillar sifatida bugungi kunda tarixchi olimlarda katta ijtimoiy qiziqish uyg'otmoqda. O'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri ozodlik va mustaqillik g'oyalari, xalqning butun orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtirgan Turkiston muxtoriyatida o'z aksini topdi. Bugungi kunda xalqning marifatli ziyolilari, xususan, jadidlarning ozodlik uchun kurash tarixini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy jamoatchilik e'tiborini ko'pdan o'ziga jalb etib kelayotgan muxtoriyat tarixi hozirda nafaqat ilmiy balki amaliy va hatto siyosiy nuqtai nazardan qiziqish uyg'otishi tabiiy chunki bu davr o'sha yillar voqealariga qayta baho berishni taqozo etadi. Mavzuning dolzarbligi ham ana shundaki o'sha davr voqealarini xolis yoritilgan holatini xalqqa yetkazishdir. Inson o'tmishi bilan tirikdir. „Inson uchun tarixdan judo bo'lish –hayotdan judo bo'lish demakdir”¹. Mavzuning o'rganilish darajasi Rossiyada 1917-yil oktyabr to'ntarishi tufayli muhim siyosiy ijtimoiy voqealar ro'y bergani kabi Turkistonda ham siyosiy hayot niyotda jadallashdi. Bu davrda Turkistonda Muxtoriyat vujudga kelishi va uning faoliyatini o'rganishga bag'shlagan asarlar juda ko'p uchray boshladi. Xususan Mustafo Cho'qay o'g'li Zaki Validiy, Saidakbar A'zimxo'jayev, Alimoza D, Rashidova D, kabi tarixchi olim va olimalarimiz asarlarida bu davr tarixi keng yoritilgan.² Mustaqillikdan so'ng nashr etilgan tarixchi olimlarimiz N. Jo'rayev Sh. Karimov Doniyorov Shoniyoz muallifligida yozilgan kitob va darsliklarda Behbudiyning va butun xalqning orzusi bo'lgan muxtoriyat hukumati va faoliyatiga keng joy ajratilgan³. O'zbekiston prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning quyidagi mulohazalariga e'tibor qarataylik; “XX asr boshidagi

¹. Karimov I.A “Taroxiy hotirasiz kelajak yo'q” T;sharq 1998 y. sahifa-5.

². Mustafo Cho'qayev “Istiqlol jallodlari” T;sharq 1992 y.

³. Jo'rayev N, Karimov Sh “O'zbekiston tarixi” T;sharq 2011 y

istiqlolchilik va marifatchilik nomoyondalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishmadi. Maxmudxoja Bexbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Tavollolar maktablar ochib xalqni ezgu yo'lga, ozodlikka, istibdodga qarshi kurashib o't bilan o'ynashayotganini buning uchun ayovsiz jazolanishlarini yaxshi bilishgan, bilib turib mana shu yo'ldan borishgan. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga davat etgan".⁴

XX asr boshida Yevropa taraqqiyotda ancha ilgarilab ketgan edi. Osiyo esa, jumladan, Turkiston ilm-fan amaliyoti va texnika taraqqiyotida orqada qolib ketgandi. Bu hol ilg'or fikrlovchi ziyolilar va mahalliy burjuaziyani tashvishga solmoqda edi. Jaholat uyqusidan uyg'onish tarixiy zaruriyatga aylangan edi. Jadidlar bu ahvolni to'g'ri tushungan va vaziyatni to'g'ri tahlil etgan ulkan ijtimoiy-siyosiy oqim, harakat edi. Turkistonda jadidchilikni rivojlanishida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy islohotlarning ta'siri ham kuchli bo'lgan. Jadidlar o'z g'oyalarini tashviqot qilish, ovam xalq ommasini ko'zini ochish yo'lida gazeta va jurnallar hamda bosmaxonalar tashkil qildilar (Sadoi Turkiston, Sadoi Farg'ona, Utro Fengano, Ferganskaya jizn, Turkestanskiy kray, hurriyat, Oyina, Al-izox va boshqalar).

Jadidlarning faoliyati o'lkada aholini milliy uyg'onishga chorlab, Chor Rossiyasi mustamlakachilarini tashvishga solib qo'ydi. O'lkada vaziyatni murakkablashtirib yubordi. Chunki, birinchi rus inqilobidan so'ng ko'pgina xalqlar, jumladan Turkiston aholisi o'rtasida ham siyosiy va madaniy erkinlikka erishish umidlari paydo bo'lgan edi. Ammo, dastlab jadidlar g'oyaviy qurol qilib olgan panturkizm umum turk olamini amalda birlashtira olmasligi aniq bo'lib qoldi. Siyosiy kurashlar rivojida an'anaviy turkchilikdan voz kechib, turkiychilik (turkizm) g'oyasini ilgari suruvchi yangi avlod maydonga chiqq boshladi. Bu yangi avlod orasida Turkiston xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy birdamligi asosida rivojlantirishga qaratilgan bir qancha milliy davlatlarni tashkil etish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu g'oya tarafdorlari Turkistonni Turkiya himoyasidagi qandaydir

⁴ Karimov I.A "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T. "O'zbekiston "1998 y. 47 b.

umumturk davlatning tarkibida emas, balki turkiy elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash asosida tashkil topgan hududiy muxtor federatsiya tarzida ko'rdilar.

Panturkizm dastlab panislomizmga oshkoro qarshi bo'lmasada, biroq, amalda panislomizm mafkurasi teokratik-klerikal-reaktsion oqimlarni vujudga kelishiga yo'l ochayotgan, musulmonlar dunyosida milliy mafkuraning paydo bo'lishiga va milliy o'zlikni anglashga g'ov bo'layotgan talimot ekanligi malum bo'lib qoldi. hatto, panturkizm asoschilaridan biri Ziyo Go'yoqalb o'zining "Turkchilik asoslari" nomli asarida panislomizm musulmon xalqlarda "milliy o'z-o'zini anglashga qarshilik ko'rsatmoqda, ularning taraqqiyotiga g'ov bo'lmoqda va shu tariqa ularning mustaqil millatlar bo'lishiga xalaqit bermoqda" deb ochiq yozadi. Panislomistlar g'oyasi ancha tor doirada, ya'ni Turkiston ruhoniylari, mutaassib ziyolilar, savdo burjuaziyasi hamda dehqonlar o'rtasida ommalashgan edi. Umumturk g'oyasiga Turkiston ziyolilari va burjuaziyasining ancha tor doirasi hayrixohlik bildirar edi. Ammo, turkizm namoyandalari Turkistonning ijtimoiy hayot maydoniga madaniy-ma'rifiy harakat sifatida, ta'lim sistemasini isloh qilishni maqsad qilib qo'ygan jadidlar edi.

Ular safida vujudga kelayotgan yosh milliy ziyolilar namoyandalari, musulmon ruhoniylarining ilg'or otryadi, savdogarlar, diniy maktab muallimlari va talabalar, mayda amaldorlar, ilg'or noshirlar, yozuvchi va jurnalistlar edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulvoxid Burxonov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo'jayev, Munavvar Qori, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Tavallolar jadidlarning eng taniqli namoyondalari bo'lib, ular o'zlarini "Taraqqiyparvarlar" deb ataganlar. Ularning ma'rifatchilik dasturida tabiiy fanlar asoslari o'qitiladigan maktablar ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, xalqda taraqqiyot, ilm sari intilishni uyg'otish va ularning barchasini insoniyat hayoti bilan bog'lash amaliyoti yotar edi.

Ilg'or mamlakatlar ta'sirida monarxiyaga asoslangan Buxoro va Xiva davlatlarida ham jamiyatni yangilash uchun islohotchilik harakati boshlanib ketdi. Bu harakat tepasida Buxoro va Xivaning demokratik ruhdagi yosh ziyolilari turar

edi. Biroq ular (ya'ni "yosh buxoroliklar", "yosh xivaliklar") Turkiston jadidlaridan farqli o'laroq, taktika sohasida mo'tadil islohotlar o'tkazish tarafdorlari bo'lib, ularning piravard maqsadi konstitutsion monarxiya edi. Biroq, "yosh buxoroliklar" va "yosh xivaliklar"ning ana shu o'rtamiyona talablari ham qattiq qarshilikka uchraydi, nihoyat ular o'ta maxfiy ishlashga o'tib, o'z faoliyatlarini davom ettiradilar. Monarxiya tartibi Buxoro va Xivada kuchli edi. Amir va xonlar, qabila sardorlari cheklanmagan hokimiyatga ega edilar. Musulmon ruhoniylari monarxiya tartibining muqaddasligi va ilohiyligiga ishonch to'ldirishga harakat qilardilar. Ammo, "yosh buxoroliklar" va "yosh xivaliklar" xalq orasida tegishli mavqega ega emasliklari tufayli chetdan, ya'ni Rossiya, Turkiston general gubernatorligi, hatto rus fuqorolaridan yordam so'rashga majbur bo'lganlar.

Shunday qilib, yangilikka intilish, an'anaviy hayot va turmush tarzidan uzoqlashish va jahonda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga tortilish nafaqat Turkistonda, balki asta-sekin Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham yuz bera boshlagan. Mana shunday ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bilan O'rta Osiyoda manaviy hayotni izga solish uchun jadid namoyondalari va ularnig ilg'or fikrli, keng bilimga ega marifatparvarlari o'zlarining bor bilim vatajribalarini keng ommaga yetkazishga harakat qildilar.

"Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u marifat va manaviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas merosi sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, chorizm mustamlakasi davrida marifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab marifatparvar, fidoiy insonlarning o'z shaxsiy mafaati, huzur – halovatidan

kechib, el- ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan hech qachon o'chmaydi.”⁵

⁵ I. Karimov. “Yuksak manaviyat – yengilmas kuch”. T. 2008y. 31-bet.

1. Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodi.



Mahmudxo'ja Behbudi

(1875 – 1919)

*Mahmudxo'ja Behbudi uyg'onish davri
o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olurg'a
loyiq zotdir.*

Hoji Muin ibn Shukrullo

Mahmudxo'ja Behbudi XX asrning 1-choragidagi Turkistonning eng mashhur kishilaridan biri edi. U Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, uning hayoti va faoliyati haqida mahalliy matbuotlarda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan edi. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudi ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudi tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-23- yillardagi o'zi

muharrirlik qilgan “Mehnatkashlar tovushi”, (1922), “Zarafshon” (1923), gazetalarda chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida 70-yillardan bugungi kungacha e’lon qilinib kelayotgan Solih Qosimov, Ahmad Aliyev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiyev va bugungi yosh tadqiqotchilar Halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova ishlarining barchasida mana shu Hoji Muin ma’lumotlari asos qilib olinadi.⁶ Uning keltirishicha,⁷ Mahmudxo’ja Behbudiy 1885 yil 19 yanvarda Samarqandda Baxshitepa qishlog’ida ruhoniy oilasida dunyoga keladi. Otasi Behbudxo’ja Solihxo’ja o’g’li turkistonlik bo’lib, Ahmad Yassaviy avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo’ja urganchlik bo’lib, Amir Shohmurod zamonida Samarqandga kelib qolgan edi.⁸

1894 yil otasi (imom xatiblik bilan shug’ullangan) Behbudxo’ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo’ja yetim bo’lib qoladi. Arab yozuvini kichik tog’asi Odil qoridan o’rganadi. Eski maktab madrasasida o’qidi. 18 yoshidan qozixonalarda mirzalik, so’ng muftiylik qiladi. Hatto Toshkentdagi «Turkiston viloyat gazetasi», Orenburgdagi «Vaqt» kabilarda bosilgan bir qator maqolalarga «Muftiy Mahmudxo’ja Behbudiy» deb imzo chekkan o’rinlar ham uchraydi. U dastlab Samarqand, so’ng Buxoro madrasalarida puxta ilm olgan.

Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Rossiya jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Ismoilbek Gaspirinskiyning ta’siri katta bo’lgan. U 1892 yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, «usuli savtiya»ni joriy etish haqidagi taklifi bilan general-gubernator N.O. Rozenbaxga murojaat etadi. Javobga erisha olmagach, 1893 yilda Toshkentga keladi, Samarqand va Buxoro shaharlarida bo’lib, mahalliy xalqlar bilan gaplashib, dastlabki yangi usuldagi maktablarni ochishga erishadi. Behbudiy ustoz Gaspirinskiy bilan bo’lgan uchrashuvini maroq bilan xotirlaydi. Behbudiy o’zbek va tojik tillarida chiqargan juda ko’p darslik va

⁶ B. Qosimov va boshqalar. “Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti”. T. 2004 y. 251 bet.

⁷ Hoji Muin ibn Shukrullo. Mahmudxo’ja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 25-mart.

⁸ Istiqlol qahramonlari “Mahmudxo’ja Behbudiy” T. 2009 y.

qo'llanmalarda Gaspirinskiy qarashlariga tayanib ish ko'radi.⁹ Xususan, Gaspirinskiyning 1898 yilda bosilib chiqqan «Rahbari muallimlik yoki muallimlarga yo'ldosh» kitobiga ergashadi. ««Usuli savtiya» maktablarining Rusiyadagi bosh muassisi Ismoilbek hazratlaridir. Birinchi yangi usul alifboning murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridir»¹⁰, - deb yozadi Behbudiy 1914 yilda. Behbudiy Gaspirinskiyning har jihatdan o'ziga xos ustoz deb bildi. U ustozining aql-u hayratini, millat yo'lidagi fidoiyligini juda yuksak baholadi. Uning vafoti munosabati bilan yozgan maqolasida «Rusiya musulmonlari ichida bunday bir zot kelgan yo'qdur», - deb ta'kidlaydilar.

Darhaqiqat, Behbudiy unga o'z asarlarida, faoliyatida tez-tez murojaat qilgan. Jumladan, 1905 yil jo'g'rofiya bo'yicha ilk maktab tuzganda Ismoilbekning «Turkiston ulamosi» kitobidagi ma'lumotlardan keng foydalangan. 1899-1900 yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga boradi.¹¹ U «1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istanbul va Misr al -Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilib edi,¹² - deb yozadi Behbudiy bu haqda».¹³ 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburg shaharlariga, 1907 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlarida bo'ladi. Bu shunchaki sayohat safarlari emas, ma'lum maqsaddagi xizmat safarlari edi. Masalan, 1907 yilda Nijniy Novgorod shahrida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bog'ishlangan qurultoy chaqirildi. Behbudiy turkistonliklar g'ururini boshqardi va katta nutq so'zladi.

⁹ Gaspirinskiy 1884-yilda Bog'chasaroyda bir maktab ochadi va unga «usuli jadid maktabi» deb nom beradi. «Musulmonlar avval bu maktabga uncha ishonqiramay qaradilar, - deb xotirlaydi u bu haqda, - ammo birinchi ommaviy ochiq imtihondan so'ng o'quvchilarning soni birdaniga 9 boladan 30 bolaga ko'paydi.... «O'qitishda «usuli savtiya» (tovush usuli) qo'llanilishi tufayli, mening rahbarligimda xo'ja (muallim) bolalarga olti oyda turkcha va arabcha o'qitishni, turkcha yozish va boshlang'ich diniy qoidalarini o'rgatishga muvaffaq bo'ldi. («Guliston» j., 1995 -yil, 2- son).

¹⁰ Istiqlol qahramonlari «Mahmudxo'ja Behbudiy» T. 2009 y. 8 bet. («Oyna» jurnali., 1914-yil. 50- son.)

¹¹ Hoji Muin ibn Shukrullo. Mahmudxo'ja Behbudiy, «Zarafshon» gazetasi, 1923-yil, 25-mart.

¹² Qarang. Mahmudxo'ja Behbudiy. «Qasdi safar» «Oyna». 1914-y. 31-son.

¹³ B. Qosimov va boshqalar. «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti». T. 2004 y.

Behbudiy Gaspinskiy yo'lga qo'ygan «usuli jadid» maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashga oid ko'p maqolalar yaratdi. Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy maktabini hovlisiga ko'chirib keldi. «Muntahabi jo'g'rofiya umumiy» (qisqacha umumiy geografiya) «Kitobat-ul atfol» (bolalar maktubi), «Tarixi muxtasari islom» (Islomning qisqacha tarixi), «Amaliyoti islom», «Muxtasari jo'g'rofiyai rusiy» (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklar yaratdi. Nashriyot qilib, darslik va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma'lum. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til yozuv madaniyati taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Turkistonda yangi usul (jadid) maktablarini tashkil etishda Rossiya musulmon maktablarining buyuk islohotchisi Ismoil Gaspinskiy g'oyasi asos bo'ldi. U Bog'chasaroyda eski qiroat o'qish usulidan farq qiluvchi, darslarni yengil o'zlashtirish usulida maktab ochib, o'zi unda dars bergan, darsliklar yozgan. Uning bu yangi usul maktabi va Chorizmning mustamlakachilik siyosatini fosh qiluvchi asarlari Turkiston jadidlari dunyo qarashiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi, Turkistonda ham yangi usul maktablarining ochilishiga turtki bo'ldi.

XX asr boshida Munavvar Qori Toshkentda o'z hovlisida maktab ochadi. Uning "Namuna" maktabi Turkistonliklar ichida mashhur bo'lib ketdi. Yangi usul maktablari butun Turkiston bo'ylab keng yoyildi. Bundan Chorizm tashvishga tushadi. Chunki uning talabalari Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi yangi siyosiy kuchga aylanmoqda edi. Yangi usul maktablarida nafaqat ma'rifatparvarlik g'oyalari, balki turkiy-islomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyish, hurfiylik, taraqqiyot va milliy istiqlol g'oyalari o'qitilardi. Jadidlar XX asr boshida mustamlakachilik zaminini zaiflashtiruvchi kuch sifatida tarix sahnasiga chiqqan edi.

Behbudiy jadidchilik harakatining asoschisi I. Gasprinskiy bilan suhbatlar quradi va maktab-maorif, madaniyat-ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'iboti aks etib turgan bir qator maqolalari bilan ro'znoma, oynomalarda chiqa boshlaydi. Xullas,

1905 yillar arafasida Behbudiy zamonasining koʻzga koʻringan ziyolisi boʻlib taniladi. “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan oʻsha zamonda Turkistondagi jadidlar orasidan unga teng kela oladigani boʻlmasa kerak”,¹⁴ - deb yozadi Fayzulla Xoʻjaev u haqda. Behbudiy Gasprinskiy yoʻlga qoʻygan “usuli jadid” maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qoʻllanmalar bilan taʼminlashda jonbozlik koʻrsatdi.

Behbudiy 1917-yilgi fevral va oktabr voqealaridan keyin Turkistonning mustaqil, ozod boʻlishi uchun tinmay kurashdi va shu yoʻlda oʻz jonini fido qildi. U Turkistonning milliy davlat qurilishi masalasini oʻrtaga tashladi. Oʻz xalqi taraqqiyotini nafaqat maʼrifatda, balki uning siyosiy maqomining keskin oʻzgarishida, oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritishida deb bildi. Siyosiy partiyalar ayniqsa “Shoʻroi Islomning jadidlari yetakchi harakatchisi sifatida oʻlkaning koʻp qismlarida oʻz faoliyatini olib bordi. Biroq Toshkentda mustahkam oʻrnashib olgan sovet komissariati qizil qoʻshin kuchigi tayanib “Milliy markaz” deb hisoblangan “Markaziy Shoʻroi Islom” harakatiga ochiqdan ochiq toʻsqinlik qildi. Shundan keyin milliy markaz oʻz harakatini Qoʻqondan turib davom etishiga qaror qildi¹⁵.

1917-yil 26-noyabrda Qoʻqon shahrida oʻlka musulmonlari IV favqulotda syezdi ish boshladi. Mandad komissiyasi aʼzosi T Norboʻtabekov Syezd qatnashchilari tarkibi haqida axborot berdi. Bunga koʻra Fargʻonada-100, Sirdaryodan-22, Samarqandda-21 Buxorodan-4, Kaspiyortidan-4, vakil qatnashayotgan edi.¹⁶ Shuningdek viloyat vakillaridan tashqari syezdda “Shoʻroi Islom”ning Shoʻroi ulamolari, musulmon harbiylari kengashi oʻlka yahudiylari jamiyati (Paoliy Leon) mahalliy yahudiylar vakillari qatnashdilar.¹⁷

Jadidlar yetakchisi M.Behbudiy oʻz chiqishida syezdning huquqiy jihaddan qonuniyligi haqida shunday degandi “Syez qarorlari shuning uchun ham katta

¹⁴ Fayzulla Xoʻjayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar. T., 1997-yil.

¹⁵ . “Oʻzbekistonning eng yangi tarixi” II kitob T; sharq 2000 y 18-bet.

¹⁶ “Ulugʻ Turkiston”1917-yil 8-dekabr

¹⁷ .Azamxoʻjayev S. “Turkiston muxtoriyati” T;sharq 2011 y 19-bet.

mavqeyga sazovorki, unda Turkistonni ovropalik aholisi ham qatnashmoqda”¹⁸. Yetakchini so’zlaridan ham anglab olishimiz mumkinki muxtoriyat a’zolari o’kada yashayotgan turli millat va xalqlarni urf- odatlarini va milliyligini etiborga ogan holda o’zoldilariga maqsqd qilib qo’ygan edilar.

Uning “Haq olinur, berilmas!” degan so’zlari jadidlarning shioriga aylandi. U Turkiston Muxtoriyatini olqishladi. Uning hukumatiga a’zo sifatida saylandi. Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgandan so’ng u siyosatdan bosh tortdi va Samarqandda maorif bo’limi mudiri bo’lib ishladi. Lekin mustaqillik umidlaridan voz kechmadi. Sovetlar hukumatining qirg’inlari, adolatsizliklari avjiga kelganda, bu holni jahonga ma’lum qilish uchun yo’lga otlangan Behbudiy Buxoro amiri tomonidan hibsga olinib, 1919-yilning bahorida Qarshi shahrida qatl etiladi.

M.Behbudiy qabrining qayerdaligi noma’lum.

Mahmudxo’ja Behbudiy sirli vafotining 7 yilligi munosabati bilan, 1926 – yilda, zamondoshlaridan u haqda bunday yuksak so’zlarni aytgan edi:

“Uning qimmati tarixning ma’lum bir bosqichida va tarixiy rivojlanishida qilgan xizmatlari uchundir. Behbudiyning xizmati fransuzlarning jan Jak Russolari, ruslarning Lomonosov, Chernishevskiy va Dobrolyubovlari, Kavkaz turklarining Fathali Oxundov va Najabbek Vazirovlari, tatarlarning Sh. Marjoniy va Q. Nosiriysi ila birdir. O’zbek milliy adabiyoti ham Behbudiy bilan boshlanib, yangi bir yo’lga kira boshladi. Behbudiy, eng avval, Turkistonni Chor hukumatidan qutqarish g’oyasini elga talqin qiluvchilardan, aholining ezilganligini birinchi sezganlardan va bu haqda turli usta yo’llar ila xalqni istiqlol kurashiga chaqirganlardandir.

Turkistonning uyg’onish tarixini uch qismga – maorif, matbuot va jamiyatga bo’lib, shu davr rahbarlarini tekshira boshlasak, bu harakatlarning boshida

¹⁸ Jo’rayev N Karimov Sh.”O’zbekiston tarixi”T. “Sharq”nashriyoti 2011-yil 19- bet.

Behbudiyl turganligini ko'ramiz.”¹⁹ Bu so'zlar Mahmudxo'ja Behbudiylning kenja zamondoshlaridan biri Laziz Azizzoda qalamiga mansub edi.

¹⁹ N. Karimov. “XX asr adabiyoti manzaralari”. T., 2008 yil. 37-38 betlar.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy – Marifatparvar olim.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini Gaspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi.

1918 yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rasi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarini rivojlantirib yuboradi.

«Usuli jadid» maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usuldagi maktablarni biron ayb topib darhol bekittirib qo'yar edi. Chunki, podsho hukumati «begona xalq»ning qisman bo'lsa ham ilm-ma'rifatli bo'lishini, dunyoviy bilimlarni o'rganishini istamasdi. Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktabning domlalari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul maktablari «islom diniga rahna soladi», «bu maktablarning muallimlari «kofir», deb tashviqot yuritir edilar. Bunday qarash va to'siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari «usuli jadid» maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarini jadal suratda olib borardilar. Mahmudxo'ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: «Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida: forscha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan. Su'ralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinchi yilida: xaftiyak, imon

va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rilar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilida: esa Kalom-u Sharif, mufasssal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi.

Maktabning ikkinchi bosqichi – rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf – ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston», turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil – arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil – arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil – arab tili, rus qozixona xatlari, bo'listnoyxona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Behbudiy maktabida har yilning oxirida tantnali imtihonlar o'tkazilib turilardi. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinardi. Bu birinchidan: «usuli jadid» maktablarini ko'proq targ'ib qilish va uning o'qish tartiblarini ko'rsatish bo'lsa; ikkinchidan: maktabni hayotiyroq qilish, ya'ni oila va maktab birligini amalga oshirish edi.

Sakkiz sinf, ya'ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forsha va turkchada bimalol so'zlab yozardi. Ruschani ham o'qib, bimalol gaplasha olardi. Turkistonning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlashga qurbi yetardi. Bu shogird maktabda muallimlik ham qila olar, tijorat bilan ham shug'ullanar, hatto muharrirlik ham qo'lidan kelardi.

Har yilgi imtihonlarga barcha joydagi vakillarga xat yuborilib taklif etilardi. Lekin ko'pchilik maktabning yutuqlarini ko'ra olmaganidan kelmasdi. Behbudiy aytar ediki: «Kelib ko'rsunlar, durust bo'lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo'lsa, dalil ila isbot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo'qdur».

«Usuli jadid» maktabini yo'lga qo'yish oson kechmadi. Behbudiy va Shakuriy buning uchun barcha musulmon taraqqiy etgan shaharlaridagi maktablarini o'rgandi. Bunday mustamlakachilik davrida Turkistonning istiqboli uchun o'z hovlisida ilm-ma'rifat o'chog'ini ochgani uchun Behbudiyning boshida necha-necha tayoqlar sindi. Shunga qaramasdan jafokash muallim «usuli jadid» maktabini qattiq turib himoya qildi. Uning maktabiga chor rus inspektorlari kelib taftish o'tkazishganida jo'g'rofiya, tarix va hisob kitoblarini otxonaning oxuri tagiga yashirib qo'ygan.

Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan saboq berar. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga hamda eng yaxshi o'qiganlarga hamda muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlar uchun qilardi.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi – maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab. Saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi – maktab degan aqidaga amal qilardi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazetasi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Xurriyat», «Oyna», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjimon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi matbuot sahifalarida yuzlab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ushbu maqolalar asosan tahsil va ta'limning taraqqiyotiga bag'ishlanardi. Masalan: «Tahsil oyi», «Ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi xususida», «Majlis imtihon», «Tarix va jo'g'rofiya», «Samarqand kitobxon islomiya», «Samarqand kitobxona va matbaaxona», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadida» kabi chiqishlarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati o'qitish tizimlari, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy

fanlarning nafi, ma`rifatga rag`bat, komil insonning tarbiyasi haqidagi muhim ma`rifiy fikrlarni o`qish mumkin edi.

Behbudiy ta`lim va tarbiya hamda uning muammolari to`g`risida boy publitsistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat – ozodlik - erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to`rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Vatanparvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo`li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» va boshqalar.

1917 yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo`lib o`tgan Turkiston musulmonlarining Quroltoyida millatni o`zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo`lida birlashishga, ittifoq bo`lishga chaqiradi. Ammo u o`z orzulariga erisha olmadi. Behbudiy 1919 yil 25 martda ana shu g`oyalari uchun millatchi jadid sifatida ayblanib, Shahrisabzda qamoqqa olinadi va qatl etiladi. U o`limi oldidan qilgan vasiyatida: «Biz o`z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz huriyat va xalqning baxt saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo`lsa, biz o`limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz.... mumkin qadar ko`proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq baxt-saodatini tahsinlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo`ladi....».

Mahmudxo`ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa bo`ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo`llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo`qolganicha yo`q. «Kitoba-tul atfol» («Bolalar maktubi») asari o`z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan. Shahodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o`rganishdan ta`lim beradi hamda namunalar ham keltirilgan. Volostnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o`rgatilgan. Yosh va kattalarga mo`ljallangan 36 sahifalik to`plam

Respublikamizga davlat maqomi berilgan, mustaqillik qaror topayotgan damlarda bu kitob nazariy-ma'rifiyгина emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'l keladi. Kitobning maqsadi ham shunga qaratilgan.

Behbudiy o'sha davrdagi madrasalar ahvolini o'zining 1907 yilda yozgan «Faryod Turkiston» maqolasida shunday ta'riflaydi:

«Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noaql mudarris saylanur, bir volostda 40 nafar el boshlaridan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur» deb Behbudiy bu mudarris, mufti va qozilarni sakson foizi qariyalardir. Ular yoshlarga qanday bilim va tarbiya bera oladilar, deydi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o'qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab yetishtirish masalasini qo'yardi. Savdo-sotiq ishlarini keng rivojlantirish, kassa ochib milliy daromadni ko'paytirish zarurligi haqida tushuntirishlar olib borardi: «Imorat qilmoqchi bo'lsak reja loyihasi lozimki, muhandislarga muhtoj bo'lurmiz. Ammo, biz hanuz muhandis ilmini bilmaymiz. Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa tuzib tijorat etmoq lozim?» degandi.

Behbudiy Turkistonda yetishtirilayotgan mahsulotlar arzon baholarda Ovrupo bozorlariga olib ketilayotganidan achinadi. Bizda ham Ovrupo bozorlarida savdo-sotiq qiladigan mutaxassislarning yetishib chiqishlarini istaydi: «Turkiston mevasi... donasi, toshi, tufrog'i... va nemusalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dollari kelib oz bahoga olib ketar. Mehnatni biz qilarmiz, foydani ular ko'rar». Shuning uchun deydi, Behbudiy: «Ovrupa ila savdo qilaturgon kishi avvalo zamona ilmi o'qimog'i lozim. U millat taraqqiyotining ma'naviyati - ham tarbiyasi, ham iqtisodi, ham ma'rifati» deb qaradi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini o'ylar ekan, millatimizning taraqqiyoti borasida turli yo'llarni qidirdi. Boylarga ham murojaat etdi: «Boshqa millatlarning

boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, faqir va yetimlarning o`qimog`i uchun voqf (stipendiyalar) tayin qilur. Butun Turkiston o`n boy elinda ming so`mdan bersa, 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamonaviy) bir pansionli va nahorli mukammal maktab bino bo`lur, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur». Agar shunday bo`lsaki, o`n yillar orasida bizda yaxshi-yaxshi o`qimishli muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar yetishib chiqardi, deb umid qiladi.

3. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodiy faoliyatida o'z davrining ijtimoiy – siyosiy jarayonlarining aks etishi.

Behbudiy 1911 yilda «Padarkush» dramasini yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda, 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasini yo'l qo'ymaydi. «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag'ishlanadi» degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o'tkazadi. Drama 1913 yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo'yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914 yil 25 yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy «Baxtsiz kuyov» dramasini shuning ta'sirida yozgani ma'lum. «Padarkush» ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914 yil 27 fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtirildi. O'sha yili Behbudiy «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtadi. Shu yil 20 avgustdan u «Oyna» jurnali chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, she'r, maqola (forscha), e'lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'yadi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi»sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913). Behbudiy 1914 yil 29 mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo'ladi, 8 iyunda Istanbulga keladi. Undan Adanaga o'tib, yana Istanbulga qaytadi va 20 iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So'ng Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said, Shom shaharlarida bo'ladi. Sayohat xotiralari «Oyna» jurnalida bosilib turadi. Bu «xotiralar» har jihatdan muhim bo'lib, an'anaviy tarix-memuar janrining 20-asr boshidagi o'ziga xos namunasi bo'lib kelgan edi.

Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, «xayoliy», «bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararli» deb yozgan edi («Xayrul umuri avsatuho» — «Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir», «Xurshid» gazetasi, 1906, 6-son). O'zlikni anglashni muhim biladi. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «marquq» derlar», deb yozadi («Sart so'zi majhuldur», «Oyna» jurnali, 1914, № 23). 1917 yilning oxiri 1918 yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906 yildan boshlangan. Shu yili «Rusiya musulmonlari ittifoqi»ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Toshkentda bo'lib o'tgan (1917) Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so'zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. 1919 yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotganida Shahrizabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. Fitrat, Cho'lpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar. O'zbekistonda (H. Sayid, N. Avazov, Z. Ahrorova), Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; B. Qosimov bilan hamkorlikda), AQShda (E. Olvort) va boshqa mamlakatlarda Behbudiy hayoti va ijodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Toshkent shahrida ko'cha va maktabga Behbudiy nomi qo'yilgan.²⁰ (Begali Qosimov)

²⁰ B. Qosimov. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti". T. 2004y.

Xulosa

Buyuk ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiya ziyolilar oilasidagi muhit undagi adabiyotga, siyosatga, ma'rifatga bo'lgan qiziqishini tezroq ro'yobga chiqishiga yetakladi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga o'z ta'sirigi o'tkazmay iloji yo'q edi. Keyinchalik bu haqda u o'z maqolalaridan birida otasi ta'lim bergan «Hidoya» (Islom huquqiga sharhlar) asarining uning taqdirida muhim rol o'ynaganligini bejiz qayd etmaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiya adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Ro'znoma va oynomalardan jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. Maktab, maorif, madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turardi. Xususan, qrim-tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo'lgan «Tarjimon» gazetasi M. Behbudiyni buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi darajasiga ko'tardi. Behbudiya dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo'lgan kadetlar partiyasi a'zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta'siri ham katta bo'lgan. U Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o'quv qo'llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to'siqlarga uchrab, «jadidlar rahnamosi», «dahriy» deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay, u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab-quvvatlab, o'z o'lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga sazovor bo'ladi. U bir qator Sharq va G'arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan.

Behbudiya haqidagi so'zlarimizning xulosasi sifatida F.Xo'jayevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng kela oladigan kishi

bo'lmasa kerak». Mahmudxo'ja Behbudiyning ulkan xizmatlari, ilmiy faoliyati, tarixnavisligi, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishi, o'zbek adabiyoti va san'ati oldidagi fidoiyligi yuksak hurmatga sazovor. U o'zbek xalqining zabardast o'g'loni, yetuk marifatparvar adibi va jamoatchlik tomonidan tan olingan olimi edi. U xalqni qo'llab quvvatlash, islohotlar yo'li bilan Turkiston iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, milliy manaviyatni shakllantirib, aholi osoyishtaligini ta'minlash borasida ijobiy ishlar qilindi. Mustaqilligimizga erishgunimizga qadar Turkiston tuprog'ida mustabid tuzumga qarshi harakatlar bir zum bo'lsada to'xtamadi. Biz azaliy orzuyimiz mustaqil va obod, ozod vatanda teng huquqli inson bo'lib yashashga nihoyat erishdik. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek " Endigi vazifa orzu umidlari haqqi avlodlarimizga siz bizning farzandlarimizga butun dunyo bilan teppa-teng bo'ylashadigan buyuk O'zbekistonni meros qilib qoldirmoqlikdir"²¹. Bu yo'lda biz yoshlar ham sobit qadam turmog'imiz lozim.

²¹ Karimov I. A. "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmay "O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura". T:-Sharq 1996 y 214-218-bet



Махмудхўша
Бехбўзӣ

ИККИ ЭМАС, ТҶҲҲ
ТИЛ ЛОЗИМ

ЖАҲОЛАТ
ДАРДЛАРИДАН

ТЕАТР НАДУР?

Mahmudxo'ja Behbudiy

UCH MAQOLA

IKKI EMAS, TO'RT TIL LOZIM

Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur, Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur.

Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni taqirru tarjimalari forschadur. Bu oida, ya'ni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, tariru tarjimani forsiyligi xila ajibdur.

Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur. Chunonchi, eski yorlilardan ma'lum bo'lurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulazou adabiyot tahrirlari forsiy yozilar ekan. Bu oidalar zotan yaxshidur. Ammo bora-bora yoinki kela-kela usuli ta'lim va kitobatG'a ehmol paydo bo'lub, hozir bir darajaG'a kelibdurki, ahli savod yoinki ahli ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiyG'a molik yo'qdur. Ya'ni usuli ta'lim va tadriski isloh etmak kerak. O'tayluk.

Turkistonning Samarqand va FarG'ona viloyatlarinda forsha so'ylayturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydur.

Fors shoiru udabosi asarlari qiyomatg'acha lazzati ketmayturgan xazinai ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovruyoyilar milyardlar sarf etarlar.

Bizg'a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsilsiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsni turkiy bilmog'i lozimdur.

Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, «Masnaviy» dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoi zamoniyy asarini

turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur. Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamosi asarini turkiyG'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamonni bilur. Turk tiliG'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamoni hozira madaniyati Tolsto'y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, N'yutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tushdik.

Bizg'a lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o'quylik. Davlat mansablariG'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizG'a xidmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatg'a xidmat ilmsiz bo'lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik дума»g'a o'z din va millatimiz naf'iG'a so'zlamoq bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib naf'i bir o'n sana o'qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqdir, etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.

Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur.

Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar (Sahihi Buxoriy, juz 4, sahifa 156).

Holbuki, ul zoti bobarokot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiylar mahkum va tobe' edi. Al-on Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmoq zarur va hadisi sharif dalolatincha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.

«Oyna» jurnali, 1913 yil, 1-son, 12-14-betlar.

JAHOLAT DARDLARIDAN

Ismimizni bilmaymiz! Nima uchun? Bizg'a o'rgatmabdurlar. Masalan, ismimiz Abdulsamad ekan, «Absamat», hatto, qishloqlarda «Apsat» derlar. (Afu buyurulsun, adabdan xorij bo'lsa-da, adabg'a da'vat etar.) Oti Yodgor ekan — «Jodigor», Lutfullo ekan — «Nutfullo» ataladur. (Astag'furullo!) G'alat atamoq sababi ila avom kotiblar tarafidan qozixona, valasnoyxona hujjatlarida va hukumat mahkamalarida ham shul tariqa g'alat va masxaralik holatida yozilur. Hatto, shaharlarda, do'kon va korxonalarni tepasinda ruscha va musulmoniy xat ilan «Obdukodir», «Patxulla», «Sanatullo» («San'atullo»), «Obduraxmon» va mundan ham g'alatroq yozilib osilgan lavhalar bordur. Bu g'alatlar bonka va xazina va notarius-maqovolat muharrirligi doiralarig'acha borar. Bir zamon bu g'alat ismlarni to'g'ri yozib mahkamag'a berilsa, mahkamadan to'g'rini g'alat deb qaytararlarki, alarni qaytarishi to'g'ridur. Bu g'atlarni tuzatmog'i va yo durustlarni g'alat qilmog'i uchun ish egasig'a, ya'ni ismni sohibig'a haftalar va oylar ila yugurmoq lozim kelur. Muni-da qo'yduk.

Shunday g'alat keta bersa, yigirma — o'ttuz sana so'ngra xalq yanadan avomroq bo'lub, musulmon ismlari yana ziyodaroq buzilur. Do'kon va korxonalar tepasindagi unvonlar mundan ziyodaroq g'alat ismlarni shomil bo'lur. Endi munga iloj, ism qo'yganda, ismni ma'nosini bayon qilinmoq va kayfiyati talaffuzni ota-onag'a bildurmoq kerak. Va alar bolani o'zig'a ham bildursunlar va ismlarni yozganda va chaqirganda durust atamoq kerak. Va ham «Jo'raqul», «Norqul», «Toshmurod», «Boltaqul»dek ma'nosiz ismlar ila bolani atalmasun. Balki arabiy, turkiy, forsiy ma'nolik ismlar ila atalsun...

Ajabi shulki, idorada g'alat yozilib kelgan ismlarni to'g'ri yozib yuborilsa, egalari rozi bo'lmaydur. Ismlari arabiy ekan, arab qoidasi bo'yincha «alif» — «lom» ila yozsang, shikoyat etarlar. Ore, ul bechoralarg'a ayb yuq. Ayb jaholatg'a va maktabsizlikg'a va ruhoniylarni(ng) musohalalarida, diniy va milliy ishlarg'a

diqqat etmaganlarindadur. Ism to'g'risinda totor birodarlarimizni xam ba'zi hollari ajoyibdur.

«Oyna» jurnali, 1914 -yil, 18-son, 318—319-betlar.

TEYOTR NADUR?

Teyotr nimadur? Javobig'a teyotr ibratnamodur teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr o'ynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir. «Qul-al-haqq va lav kona (va) maroan» mazharidur.

Ayni zamonda yana tamoshogoh va yoinki ko'ngul ochguvchi milliy va adabiy jam'iyatlarni boisidur. Taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf'i va zararidan paydo bo'laturgon natijalarni teyotrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur.

Har zamonni bir usuli ehtisobi bordur. Bu zamonda teyotrxonalar ham yamon va zararlik odatlarni ehtisob va tanqid qilib yamonligini, qabihini xaloyiqg'a ko'rsatib va'z va nasihat etguvchi bir joydur. Teyotrxona sahnalarida qo'yulaturgon asarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur. Ul voqeadagi yamonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qochib, yaxshilikg'a harakat qilmoqg'a, teyotrdagi ko'rsatilgon voqealar sabab bo'lur.

Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarida ba'zi bir hodisani bayon qilingandurki, o'qub, asarlanib, lazzat olinadur. Ammo teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur. (Shunidan kay bud monandi diydan — eshitmoq qachon ko'rmoq kabidur.) Yana teyotrdagi savodsiz odam ko'zi ila ko'rub, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar.

Xulosa: teyotr bir nav' maktab hukmindadur. Taraqqiy qilgan xalqlar o'rtasida teyotr u qadar taraqqiy etkandurki, har kun bir yangi asar tasnif bo'lub, sahnada

qo'yulur. Asarni yozgan muharrirg'a ming so'm va o'n ming so'mlab hadya berib, asarini mushaxxislar sotib olib, sahnada qo'yub foida qiladurlar. Ba'zi bir teyotr asarlari eski bo'lmay va xaloyiqni ko'nglig'a urmay, bir shaharda yigirma — o'ttiz, hatto, yuzinchi daf'a qo'yulganlari bordur. Teatrg'a qo'yulgon asarni ortuqcha va yo oz yerlarini va yetishmaganlarini maishati milliyadan xorij nuqtalarini muharrirlar, jaridalar ila tanqid etadurlar. Xaloyig'a ma'qul bo'lub va yo bo'lmag'ani ila teyotr muharririni xursand va yo g'amlik bo'lur. Muharrirni asari yaxshi chiqsa, har kim oni tabrik etar va shuhrati ziyoda bo'lur. Va bul boshqa muharrirlarni harakatg'a kelishib, yaxshi asarlar yozmoqlarig'a bois bo'lur. Teyotr uchun muharrirni ne qadar chuqur o'ylaguvchi zarif va nazokatligi lozim bo'lsa, mushaxxis (hodisani ko'rsatguchi)larni ham tavono va muqallid va har nimarsani o'zidek qilib ko'rsatguchi, nuktadon bo'lishi lozim bo'lib, bul alohida bir san'atdurki, ovrupolilar munga ham alohida maktab ijod qilgandurlar.

So'zni qisqasi, teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis bo'laturgonlar «o'yunchi va masxaraboz» bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasinda mushaxxislar ham kibor va muhtaram sinflar qatorindadur. Xususan, o'z kissasi naf'ig'a mushaxxislik qilmay, balki maktab va o'z millati naf'ig'a mushaxxislik qilganlarni qadri du bolo ziyodadur.

Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri ojiz «Padarkush»ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarand, Xo'qand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarinda millat naf'i uchun ko'ngullilar sahnada qo'yub, to'rt-besh ming so'mni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foidasig'a berdilar. Mana endi muhtaram Samarqandiy ko'ngulli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana «Padarkush»ni Samarqandda yettinchi moyda sahnag'a qo'yub, hosilini maktablarg'a sarf uchun berdilar. Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko'rgonlari gunah bo'lgon joyini ko'rsatsalar. Inchunun, asarni tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar, toki boisi isloh bo'linsa. Ammo bu kung'acha muhtaram ahli qalam «Padarkush»ni buzuq yerini ko'rsatmay, balki «kuldurguchi va ham yig'latguchi nosih va nofe' asardur» holinda tabrik va

taqrizlar ila yozdilarki, biz alarg'a tashakkur aytarmiz. Asarimizni qabihini yozgon kishig'a ziyodaroq tashakkur etmoqg'a madyunmiz, chunki bois islohdur.

«Mutakallimro to ayb nagirand — suxanash isloh napazirad» («So'z so'ylaguvchini ayb etmaguncha, so'zi tuzalmaydur»). Ba'zi bir ahli vatanning teyotr asari yozmoqg'a mashg'ulliklari eshitilurki, asarlarig'a chahorchashm ila muntazirmiz. Yozilgan asarlarni ko'ngulli dastalari sotib olib bostursalar, foida ham qiladurlar. Chunki bir kishig'a ham asar yozib, ham bosturub va hamda sahnada qo'ydurmoq mushkuldur. Dastalar sotib ola bersalar, asar-da ko'payur. Turkistonda oyinda bir asar tahrir bo'linsa-da, ko'blik qilmaydur.

«Oyna» jurnali, 1914 yil, 29-son, 550-553-betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” T:O’zbekiston 1998.
2. Karimov I. A. “Yuksak manaviyat – yengilmas kuch”. T. 2008y.
3. Karimov I. A. “Buyuk maqsad yo’lidan og’ishmay “”O’zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura”. T:-Sharq 1996 y
4. Mustafo Cho’qayev “Istiqlol jallodlari” T;sharq 1992 y .
5. Jo’rayev N, Karimov Sh “ O’zbekiston tarixi “ T;sharq 2011 y.
6. B. Qosimov va boshqalar. “Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti”. T. 2004 y.
7. Mamudxo’ja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 25-mart.
8. Istiqlol qahramonlari “Mahmudxo’ja Behbudiy” T. 2009 y.
9. Mahmudxo'ja Behbudiy. “Qasdi safar” “Oyna” jurnalidan parcha.
10. Fayzulla Xo’jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar. T., 1997-yil.
11. “O’zbekistonning eng yangi tarixi” II kitob T; sharq 2000 y.
12. Azamxo'jayev S. “Turkiston muxtoriyati” T;sharq 2011 y.
13. Jo’rayev N Karimov Sh.”O’zbekiston tarixi”T. “Sharq”nashriyoti 2011-yil
14. N. Karimov. “XX asr adabiyoti manzaralari”. T., 2008 yil